



TURIZMDA TILSHUNOSLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

Jurabayeve Fotima

Andijon Davlat Universiteti Ijtimoiy Iqtisodiyot fakulteti

Gid hamrohligi fakulteti 302- guruh talabasi

(Andijon shahar) Fotimajurabayeva2@gmail.com

Anatsatsiya: *Hozirgi kunda tilshunoslikning o'rni har bir sohada muhim ahamiyat kasb etyapti shu jumladan turizm sohasida ham. Ushbu maqolada turizm sohasida tilshunoslikning o'rni va ahamiyati tadqiq qilinib, ba'zi turistik terminlar, atamalar borasida biz yuz tutayotgan muammolar ko'rib chiqilib ularga turli xildagi talab va takliflar tadqiq qilindi.*

Kalit so'zlar: *Termin, Atama, Turizm, Ibora, Tilshunoslik, Mintalitet, Tarjima, Lingua madaniyat, Tarjimon, Gid hamrohligi.*

Ma'lumki har bir sohada zarur bo'lgani kabi turizm sohasi ham ma'lum bir tilshunoslik termini va atamalariga muhtoj sohalardan biri hisoblanadi. Turli millatlar aro muloqot o'sha davlatning e'tiqodi, dini, dunyo qarashi va ijtimoiy hayotiga qarab amalga oshiriladi. Bu albatta sayyohlar bilan o'zaro muloqot qilayotgan gid va tarjimonlarning mahoratiga bog'liq. Hozirgi kunda tarjima tilshunoslikning bir qismiga aylangan. Bu turdagi tillar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni o'rnatishga yordam beradi. Va ularning o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarini anglashga yordam beradi.

Tilshunoslikning ta'siri tarjimada, turistik aloqalardagi farqlar hamda tillarning funksional imkoniyatlariga bog'liqdir. Bu bilan ko'rinib turibdiki tarjima va tilshunoslik bir biri bilan chanbarchas bog'liq sohalardir. Bekorga turizm sohasida ish olib borayotgan qadrlarga tilshunoslikning bir necha bo'limlari borasida bilim va ko'nikmalar berilmaydi. Tarjima sohasidagi ishlarni amalga oshirish uchun yoki ekskursiya sayohati uchun tanlangan horijiy tillardagi til birikmalari puxta o'rganish lingua madaniy tahlil jarayonda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari madaniyatlar aro farqni tushunish uchun asl matn tilidagi xalq mintalitetini buzmagani holda tushuntirish va o'rganishni talab qiladi. Turizm sohasida lingua madaniyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, u xalqning nafaqat bugungi kundagiturmush tarsi, balki asrlar davomida shakillanib kelgan milliy tarixiy diniy madaniyatini aks etadi. Ma'lumki har bir tilning o'zining madaniyatiga xos folklorlar, janrlar maqolalar va iboralar shu tilde muloqot qiladigan millatning asrab avaylanadigan eng ko'p o'rganalidigan muhimahamiyatga ega bo'lgan xalq og'zaki merosi hisoblanadi. Bu turdagi madaniy meroslarni buzmagani holda sayyohlarga yetkazish ko'p yillik tajriba va ko'nikmalarni talab etadi.

Turistik nutq sohadagi linguistic tadqiqotlar so'ngi yillar mobaynida faol ravishda olib borilmoqda. Chunki butun dunyoda jadal rivojlanib borayotgan turizm sohasi o'z tiliga ega. Zamonaviy ilm fanda sayyohlik so'zlashuvining linguistic xususiyatlarini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'rganishlarga katta e'tibor berilmoqda. Har bir sohaga oid maxsus so'z va iboralar termin va nomlar alohida yondashuvni talab etishi ularning lingua madaniy xususiyatlarini anglash va lug'atlarda ularni talqin etishda barcha talablarga javob berishi zarur. Misol qilib aytganda biz hursandligimizni turli xil iboralar bilan kishilarga yetkazamiz masalan " Boshim osmonda yetdi" Ammo ingliz tilida bu to'g'ridan to'g'ri so'zma so'z tarjima qilinmaydi. Uning o'rniga Over the moon iborasi ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tilshinoslikning turizmdasgi o'rnini beqiyos va bunga jiddiy yondashilish talab etiladi. Bunday nozik masalalarni albatta ibora, atama va terminlarsiz mukammal deb bo'lmaydi. Chunki har bir sohaning o'ziga tegishli termin va atamalari bor bo'lib bu atamalarni biz boshqa bir sohada qo'llashimiz butun bir xalqning merosi yoki mintalitetiga hurmatsizlik va tushunmovchiliklarga saba bo'lishi mumkin. Kundan kunda bu sohada yangi terminlar paydo bo'lib tilshunoslar tomonidan o'rganilib kelmoqda, sababi til shunday narsaki hech qachon bir joyda qotib turmaydi balki shuning uchunmi bu soha doim izlanish va tahlillarni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bell, R. T. & Candlin, C. N. (2016) Translating and translating: Theory and practice
2. G'ofurov I. Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish-T.:Mehridaryo, 2008. Jo'rayev K.

